

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

—
JOURNAL
2022

№3

Бош муҳаррир:

Пардаев А.Ҳ. ЖДПИ, тарих факультети декани, т.ф.н. доцент.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ақчаев Ф.Ш. ЖДПИ, тарих факультети, т.ф.б.ф.д. (PhD), доцент.

Масъул котиблар:

Саидов Ж.О. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

Хўжанова М. ЖДПИ, Тарих факультети ўқитувчиси

Таҳририят аъзолари:

1. Сагдуллаев А.С. – тарих фанлари доктори, Академик,
2. Аҳмедшина Ф.А. – тарих фанлари доктори, профессор,
3. Шодмонова С.Б. – тарих фанлари доктори, профессор,
4. Очилова Б.М. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
5. Чориев С. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
6. Туленова Г. Ж. – фалсафа фанлари доктори, профессор,
7. Пардаев М.Ҳ. – тарих фанлари доктори, доцент,
8. Ғойибов Б.С. – тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
9. Ярмагов Р. – педагогика фанлари доктори (DSc), доцент,
10. Саидқосимов А.И. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент,
11. Амануллаев А. – ф.ф.б. фан доктори (PhD), доцент,
12. Тошбоев Ф.Э. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
13. Миркомиллов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент,
14. Саидов М. – фалсафа фанлари номзоди, доцент,
15. Ғофуров Ж. – тарих фанлари бўйича фан доктори (PhD), доцент,
16. Ҳошимхонов М.Х. – ф.ф.б. фан доктори (DSc), доцент
17. Валиев А.Х. – катта ўқитувчи,
18. Мажидов А.С. – катта ўқитувчи,
19. Каримова Н. – ўқитувчи,

DAFN QILISHGA OID URF-ODAT VA MAROSIMLAR

Tugalov Boburjon - JDPI Tarix fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'lim bilan aloqador urf-odatlar. Respublikamiz hududida yashovchi o'zbeklarning o'lim bilan bog'liq urf-odatlar majmuida diniy qoidalar, rasm-rusmlar bilan birga umuminsoniy, hayotiy ehtiyojlar talabidan kelib chiqqan urf-odatlar ham maqolada mujassamlashgan.

Kalit so'zlar: Urf-odat va marosimlar, Keksa, Vasiyat, dafn marosimi, o'limga tayyorlanish, yig'in, marhumni yuvish.

Аннотация: В данной статье обряды, связанные со смертью. В статье содержится совокупность связанных со смертью традиций узбеков, проживающих на территории республики, а также религиозных правил и обрядов, а также обычаев, вытекающих из требований общечеловеческих, жизненных потребностей.

Ключевые слова: Обычай и обряды, старцы, завещание, похороны, подготовка к смерти, собрание, омовение усопших.

Annotation: In this article, the rituals associated with death. The article contains a set of death-related traditions of Uzbeks living in the territory of the Republic, as well as religious rules and rituals, as well as customs arising from the requirements of universal, vital needs.

Keywords: customs and rituals, Elderly, Testament, funeral, preparation for death, gathering, washing the dead.

O'lim bilan aloqador urf-odatlar. Respublikamiz hududida yashovchi o'zbeklarning o'lim bilan bog'liq urf-odatlar majmuida diniy qoidalar, rasm-rusmlar bilan birga umuminsoniy, hayotiy ehtiyojlar talabidan kelib chiqqan urf-odatlar ham mujassamlashgan. To'g'ri, bu umuminsoniy hayotiy, ehtiyojlardan kelib chiqqan, o'tmishda va hozirda hal qilinayotgan urf-odatlarda diniy qoidalar bo'lishi mumkin.

Keksa yoki uzoq yotgan odam o'z umri poyonini sezsa, farzandlarini, uzoq va yaqindagi qarindoshlarini, do'stu-yorlarini eslaydi, ularni chaqirtiradi. Ulardan rizolik so'raydi, oralarida biror gap o'tgan bo'lsa kechirim so'raydi, qarzi bo'lsa, bolalari va yaqinlariga uni uzishni, merosi bo'lsa taqsimlashni vasiyat qiladi va ko'p hollarda ularga nasihat beradi. Farzandlari va yaqinlariga: "Menga hamma odamlar qilgan hurmatni, odatni sizlar ham qilinglar" deb aytadi. Shu o'rinda vasiyat, vasiyatnoma o'limga aloqador bo'lib bu masalaga alohida to'xtalish zarur.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Vasiyat. Vasiyat umri poyoniga yetgan, yoshi ulug' kishining yoki otananing o'zidan keyingi zurriyotlariga qoldiradigan hal qiluvchi topshirig'i, so'nggi so'zidir. Inson umrining xotimasi vasiyat bilan yakunlanadi.

Ba'zilar o'z vasiyatlarida vafotidan so'ng narsalari va mulklarini qanday taqsimlash, kimga yuvdirish, kim mahram suviga olishi, kim suv quyishi, kim gavdasini tutishi, qaysi mulla janozasini o'qishi, qaysi mozorga va qaysi pushtiga qo'yishlari, qabriga tosh yoki yodgorlik qo'yishlari yoki qo'yamasliklari va boshqa zarur gaplarni, istaklarni aytadilar.

Vasiyatni jon berayotgan keksa yoki bemor ko'pincha o'z xotiniga, to'ng'ich o'g'li yoki aka-ukalariga, hatto yoru birodarlariga xam aytgan. Ko'p hollarda kishining tirikligida aytib yurgan gaplari ham vasiyat o'rniga o'tgan. Marhumning qarindoshlari vasiyatni so'zsiz bajarishga harakat qilganlar.

Vasiyat qilinayotgan paytda vasiyat qiluvchining so'zlarini uning barcha yaqinlari, qarindoshlari, yoru birodarlari, agar ulgurolmay qolsa yonidagi kishi eshitgan va vasiyatini boshqalarga (egasiga) yetkazgan. Odatda, vasiyat kimning nomiga buyurilsa, o'sha kishi uni amalga oshirgan yoki qilingan vasiyatning bekamu ko'st bajarilishini tashkil etgan, yoxud nazorat qilgan. Agar o'lim oldida turgan kishi ota-ona bo'lsa, ko'p hollarda ular o'z vasiyatlarida farzandlari va qavmu-qarindoshlariga bir-birlari bilan inoq, ittifoq bo'lib yashashlarini tayinlashgan. Agar o'layotgan kishi yosh bo'lsa, xotiniga boshqa turmush qilsa bolalarini xor qilmaslikni, yaxshi tarbiyalashni vasiyat qilgan. Farzandlariga bir-biriga mehribon bo'lish, ota-onasi sha'niga dog' tushirmaslik alohida o'qtirilgan. Ko'pchilik hollarda bu xildagi vasiyat rozi-rizolik tilash vaqtida qilingan.

O'zbek xalqining o'ziga xos urf-odatlarining xususiyati shuki, ular berilgan so'zga ustivor turishadi va uni qat'iy amalga oshirishadi. Shuning uchun dafn marosimlarining bir ko'rinishi bo'lgan vasiyat qilish va uni bajarish ishiga juda mas'uliyat va ixlos bilan qaraladi.

Xullas, vasiyat o'lim to'shagida yotgan kishining o'z yaqinlariga aytib yoki yozib qoldirgan topshirig'i, istagi yoki nasihatidir. Vasiyatni bajarish muqaddas hisoblanadi, chunki u, yuqorida ta'kidlanganidek, o'layotgan kishining oxirgi istagidir. Ko'pchilik hollarda o'layotgan kishi qaysi yaqiniga vasiyat qilgan bo'lsa, u bu oxirgi istakni bajaradi. Faqat ayrim hollardagina-yo qaysarlik, yo e'tiborsizligu mehru oqibatsizlik, yoxud daxriylik va boshqa sabablarga ko'ra vasiyat bajarilmay qoladi. O'rganilgan ma'lumotlar va hayotda sodir bo'layotgan voqyealar shuni ko'rsatadiki, bajarilmagan, amalga oshmagan vasiyat kishini bir umrga qiynagan. Vasiyatni eshitib, uni bajarishga so'z berib, bu vasiyatni bajarmagan kishini vijdon azobi iztirobga soladi. Vasiyatni bajarmagan kishi vijdoni oldida qiynalib, hatto sog'ligini yo'qotish darajasidagi holatga tushib qolgan va eng dahshatlisi shu kasallik tufayli umri zavol topgan hodisalar, voqyealar ham ma'lum.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Vasiyat qilish og'zaki yoki yozma ravishda amalga oshirilishi mumkin. Yuqorida keltirilganlar og'zaki vasiyatga tegishli misollar bo'lib, asosan o'tgan asrda va asrimiz boshlarida amal qilgan. To'g'ri, og'zaki vasiyat qilish hozirgi kunlarda ham bor. Hayotda vasiyatning og'zaki turi ko'proq uchraydi.

Yozma vasiyat-vasiyatnoma deb ataladi. Vasiyatnoma asosan mulk, meros bilan bog'liq istaklarni va munosabatlarni o'z ichiga oladi, zero, u meros qoldiruvchining o'z mulkiga doir oxirgi farmoyishidir.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida vasiyatnomalar qozixonalarda kotiblar tomonidan yozilib, vasiyat qiluvchi tomonidan imzolangan (o'sha davrda ko'p kishilar savodsiz bo'lganliklari uchun imzo o'rniga barmoqlarini bosganlar) va qozi tomonidan muhrlangach huquqiy hujjatga aylangan. Hozirda vasiyatnoma muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxs tomonidan davlat notarial idoralarida tuziladi. Aqli zaif, ruhiy kasal kishilar tuzgan vasiyatnoma haqiqiy hisoblanmaydi. Vasiyatnomani vasiyat qiluvchi imzosi, uni davlat notarial idorasi, bunday idora bo'lmagan joyda mahalliy boshqaruv organlari tasdiqlashi lozim. Harbiy xizmatchilarning vasiyatnomasini tegishli harbiy qism qumondonligi, agar kemada bo'lsa uning kapitani, chet eldagi fuqarolarning vasiyatnomasini o'sha mamlakatdagi tegishli elchixonaga, dam olish, davolash muassasalarida esa bosh yoki navbatchi shifokor tasdiqlaydi.

Vasiyat qiluvchi kasalligi, jismoniy kamchiligi va boshqa uzrli sabablarga ko'ra vasiyatnomaga imzo qo'ya olmasa, vasiyat qiluvchining imzolay, olmaslik sababi guvoh huzurida ko'rsatilib, boshqa ishonchli kishi uni imzolashi mumkin.

Vasiyat qiluvchi o'z vasiyatnomasida voyaga yetgan, mehnatga layoqatli, qonuniy vorislaridan biri yoki bir nechasini meros huquqidan mahrum qilishi, meros mulkini o'zi xohlagan hissada taqsimlashi, vorislarga meros mulki hisobidan turli hisobidan turli majburiyatlar yuklashi mumkin. U notarial idoraga ariza berish yo'li bilan oldingi vasiyatnomasining bekor qilinishini yoki qisman o'zgartirilishini ko'rsatib yangi vasiyatnoma yozishga haqli.

Vasiyatnomaning xususiyatlaridan biri shuki, u vasiyat qiluvchining hayotligi, sog'ligi yaxshi vaqtida oldindan yoziladi. Og'zaki vasiyat ham kishi tirikligida qilinishi mumkin, lekin ko'p hollarda bu ish oxirgi damda, ya'ni rozi-rizolik so'rash vaqtida sodir bo'ladi.

To'plangan ma'lumotlarni o'rganish va hayotiy voqealarni kuzatish asnosida yana shuni qayd qilish mumkinki, ayrim hollarda kishi tirikligida yaqin kishilarga yarim hazil, yarim chin qabilida aytib yurgan gaplarni ham uning vafotidan keyin amalga oshirish zarur bo'lgan vasiyatga aylanadi. Bu ko'pincha o'layotgan kishi hech narsa aytolmay to'satdan jon taslim qilganda sodir bo'ladi.[1]

O'limga tayyorlanish. O'limining yaqinlashuvini sezgan kishi yoki keksa kishilar o'limga tayyorlanishadi. Bu xalqimiz orasida mavjud bo'lgan odatlardan

Тарих ва Жамият илмий журнали

biridir. Odamlar o'z dafn marosimi uchun oldindan buyum va mablag'lar - o'limlik tayyorlab qo'yganlar. Masalan, o'zbeklarda, jumladan, biz o'rganayotgan Жиззах vohasida yashovchi o'zbeklarda ham o'limlik kafanlik, oqlik, oxirat ko'ylagi va boshqa (bir sidra yangi kiyim bosh, poyabzal – kovush-mahsi kabi)lardan iborat bo'lgan. Axborotchilarning xabar berishicha, o'limlik uchun g'amlangan mato, gazmol - oq surp, bo'z, doka kafanlik uchun ajratilib, ular erkaklar uchun taxminan 16-24 metr, ayollar uchun esa 28-30 metrlar chamasi atrofida, hatto ba'zi badavlat, o'ziga to'q kishilarda bir to'p (60-70 metr)gacha bo'lgan. Bundan tashqari keksa kishilar kiyimlik va poyabzaldan tashqari "O'lgan kunimda bolalarim va yaqinlarimga berishadi" deb sarupo (mato, kiyim va hokazo)lar, dafnga kelgan odamlar va xizmat qilgan (murdasho'y, suv qo'ygan kishi, mulla, go'rkov va boshqa)larga berish uchun pul ham g'amlaganlar. Ko'pincha keksalar "bir kunligi" uchun yig'ib yurgan narsalari - o'limligini o'z yaqin kishilariga ko'rsatib qo'yganlar.

Afsuski, hayotda to'satdan ro'y bergan o'limlar ham uchrab turadi. Ma'lumki, bunday holda o'limlik o'lim sodir bo'lgan kunda hozirlanadi. To'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ilgari o'limlikni o'ziga to'q, badavlat kishilargina g'amlashgan. Bu masala bilan bog'liq bo'lgan shunday voqealar ham uchraydiki, bunday badavlat kishilarning ayrimlari tirikligida sag'ana uchun g'isht, turli marmarga yozilgan lavhalarni va nomini abadiylashtirish uchun boshqa vositalarni ham tayyorlaganlar. Masalan, qadimgi vaqtlarda go'rga marmar-tosh qo'yish odat bo'lgan. Xozir ham xalq orasida: "Go'ringa marmar-tosh qo'yasanmi?", degan ibora saqlangan. Shundan kelib chiqib, ayrimlar marmartosh xam tayyorlatib qo'yganlar.

Xullas, o'zbeklarning o'lim va u bilan aloqador urf-odatlarida ham shar'iy qoidalar, ham umuminsoniy, hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqan rasm-rusmlar mavjudligini ko'ramiz. Bu odatlar jumlasiga, birinchidan, vasiyat qilish yoki vasiyatnoma yozish (yozdirish); ikkinchidan, o'limga tayyorgarlik ko'rish; uchinchidan, qiynalmay jon berishga qaratilgan tadbirlar; to'rtinchidan, kishining vafot etishi bilan uning oila a'zolari va qarindoshlari tomonidan darhol bajarilishi zarur bo'lgan ishlar; beshinchidan, marhumni dafn qilishga tayyorgarlik va uni tashkil qilish masalalari, shu o'rinda marhumni mehmon qilish, "qora oshi" - motam marosimiga kelganlarning ziyofati haqidagi; oltinchidan, kishining vafotini ovoz chiqarib, ya'ni jarchi orqali elga ma'lum qilish kabilar kiradi. Bular xalq hayotida muhim rol o'ynagan va o'ynamoqda.

Dafn marosimlari. An'ana ijtimoiy hodisa bo'lib, xalqimizning moddiy va ma'naviy hayotida uning o'rni beqiyosdir. An'ana avloddan-avlodga o'tib turadigan va jamoatchilik tomonidan asrab, avaylanadigan marosimlar, urf-odatlar va taomillar majmuasidir.

Dafn marosimlari xam an'analari, qadriyatlarining bir ko'rinishi bo'lib, kishi vafoti va uni ko'mish bilan bog'liq urf-odatlarining azaliy ramzidir. Dafn

Тарих ва Жамият илмий журнали

marosimlari qat'iy tartib-ko'ida, oldindan belgilangan rasm-rusmlar, rejalashtirilgan taomillardan iborat bo'lib, muayyan me'yor asosida o'tkaziladi. Uning qoidalariga barcha amal qilishga urinadi, ozgina bo'lsada, me'yoridan chiqish jamoatchilik tomonidan qoralanadi.

Dafn marosimlari boshiga musibat tushgan kishilarning qayg'ulariga hamdardlik bildirish, marhumni so'nggi yo'lga kuzatishdan iborat katta jamoat yig'inidir. Ma'raka, motam marosimlari inson hayotining qayg'uli, iztirobli damlari bo'lib, unda qatnashadigan har bir kishi toza, ozoda, yuvinib, taranib, yaxshi kiyinishga, janoza o'qiydiganlar esa tahoratli bo'lishga harakat qilganlar. Bu paytda odam o'z hayotidagi barcha ikir-chikirlarni, tirikchilik tashvishlarini unutadi, barcha narsadan voz kechib, vafot etgan kishini xotirlashga keladi, hayot va o'limni taqqoslaydi, yashashning mohiyatini o'ylaydi, shu tariqa o'zining insoniy burchini astoydil o'tashga urinadi.

Dafn marosimlari insoniyat paydo bo'lgandan buyon geografik muhit, kishilarning madaniyatlari, shuningdek, tarixiy ilmiy, diniy tasavvurlari va dunyoqarashlariga bog'liq holda o'zgarib borgan. Dafn marosimlari turli xollarda turli ko'rinishda, o'ziga xos urf-odatlar, udumlar orqali ado etiladi.

Yig'in. Kishi vafot etgandan keyin uni eng yaqin odamlari, qavmu qarindoshlari dardu alam bilan dafn qiladilar. Bu dafn marosimi motam bilan, ya'ni aza ochish, yig'i bilan boshlanadi, zero, motam- mayyitni sog'inib, g'amgin bo'lib yig'lashdir. Motamzodalarga hamdardlik bildirish uchun kelgan qarindoshlar, yoru do'stlar, hamqishloqlar hamma ko'shilib, katta yig'lovchilar davrasiga aylanadi. Shunday qilib, motamning birinchi belgisi - yig'i, ovoz chiqarib aytib yig'lashdir. Dastlab, ovoz chiqarib yig'lash - navha deyiladi.

Motam marosimlarida yig'i (bo'zlov, bo'zlash), yig'lash alohida o'rin egallagan. Dafn kunidagi yig'ida erkak va ayollar (ayniqsa ayollar) baland ovoz bilan dod solib yig'laganlar. Shu o'rinda erkaklar va ayollar yig'isiga alohida to'xtalib o'tish joizdir.

Erkaklar yig'isi o'zbek xalqining motam marosimlarida erkaklar asosan marhum dafn etiladigan kunda yig'laydilar. Ko'ng'iro't o'zbeklari dafn kunidan boshqa kunlarda, ba'zi joylarda uch kun (otquduq), ba'zi qishloqlarda 7 kun tong mahaldan marhum to dafn qilinguncha o'tovning atrofini o'rab olib, ovoz chiqarib yig'laganlar. Ilgari kim o'lsa bu odatga amal qilishgan, hozir esa faqat yosh o'limda shunday yig'lanadi.

Marxumning erkak qarindoshlari dafn marosimi kuni yangi, ohorli to'n, kalpoq kiyib, bellarini bog'lab, qo'llariga hassa aso, yangi qirdag'an novdadan tayoq olib, unga suyanib marhum yotgan uyning oldi atrofida qator bo'lib, turib yig'laganlar.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Erkaklar yig'laganda, masalan, ota vafot etgan bo'lsa: "Otam-oo..., duogo'yim... otamoo, otam", ona vafot etgan bo'lsa: "Oq sut bergan... onamooo, ena..., ona (enam)" vafot etgan kishi kekxa bo'lsa: "Bir fasllik mehmonim... otamooo..., Buvamooo... Bobomooo ..." kabi so'zlarni aytib yig'lashgan. Marhum ayol bo'lsa eri: "Gulimooo..., uyimooo..." deb, qarindoshlari: "Og'amooo..., jigirimooo..." - deb yig'laganlar.[2]

Ayollar yig'isi erkaklar yig'isidan o'ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Yuqorida erkaklar asosan o'rinlaridan turib, ko'llariga cho'p hasxa olib yig'lashlari ta'kidlangan edi. Ayollar esa goh y'tirib, goh turib yig'laydilar. Marhum dafn etiladigan kundagi yig'ida ayollar deyarli tik turib yig'laydilar. Yig'ida azadorlar (agar marhum yosh yigit bo'lsa xotini uning to'nini kiyib) bellarini bog'laganlar. Axborotchilarning aytishicha, bu judolik belgisi ekan.

Yurtimizning turli hududlarida ayollar dafn marosimlarida boshlarini ochib (ayniqsa eri o'lgan ayollar boshim ochiq qoldi, degan ma'noda), sochining o'rimini tarqatib, yoyib, ko'kraklariga urib, qarsak chalib, dod solib yig'laydilar.

Xo'sh, bu odatlar qayerdan kelib qolgan? - degan savol tug'ilishi tabiiydir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dod solib, baland ovoz bilan sochlarini yozib, o'zini urib yig'lash odati nafaqat o'zbek xalqiga, balki butun Markaziy Osiyo xalqlariga xos bo'lib, uning ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi.

Marhumni yuvish. Ekspeditsiya vaqtida so'ralgan axborotchilar marhumni yuvish to'la islom va shariat qoidalari asosida o'tkazilishi haqida fikr bildirdilar. Xo'sh, aslida shundaymikan? Xalqimizning marhum yuvishdagi o'tmishidagi va hozirgi odatlariga hurmat bilan qarash bilan birga ba'zi bir mulohazalarni bildiramiz.

Marhumni yuvish bilan bog'liq urf-odatlarining paydo bo'lishi haqidagi mulohazalarning birinchisi shuki, bu odatlar, ya'ni murdani yuvishning ba'zi tartiblari zardo'shtiylarning murdaga an'anaviy nopoklik, deb qarashlaridan kelib chiqqan bo'lib, ular odam o'lgandan keyin nopok bo'lgan marhumning jasadini suv bilan poklaganlar, yuvganlar. Ana shu an'anaviy zardo'shtiylik bilan bog'liq[3] bo'lgan murdani yuvish qoidalari va tartiblari keyinchalik musulmonlik tariqasidagi marhumni yuvish bilan bog'liq rasm-rusmlarni keltirib chiqargan degan farazdir. Bu nuqtai nazarni G.P.Snesarev ilgari surgan. Ikkinchisi esa marhumni yuvish barcha xalqlarga, jumladan o'zbeklarga ham xos bo'lgan umuminsoniy ehtiyojlardan kelib chiqadigan, marhumni yuvib-tarab, pokiza ravishda dafn qilish maqsadiga qaratilgan degan nuqtai nazardir.

Shy bilan birga, ba'zi axborotchilarning qat'iy turib ta'kidlashlaricha, marhumni yuvish islomga e'tiqod qilish bilan birga paydo bo'lgan, degan uchinchi nuqtai nazar ham mavjud. Agar chuqur mushohada qilsak bu har u chala nuqtai nazar asosida bir maqsad - nopok (murda) ni poklash odati, g'oyasi yotadi va bu g'oya

Тарих ва Жамият илмий журнали

hozirda ham xalqimizning an'anaviy dafn marosimlaridagi marhumni yuvish odatining asosi bo'lib qolgan.

Axborotchilarning bergan ma'lumotlariga ko'ra murdaning tiriklar bajarishi lozim bo'lgan to'rtta haqqi bor:

Uni yuvib, kafanlash va janozasini o'qib tuproqqa topshirish;

Qarzi bo'lsa uni uzish;

Qilgan vasiyatini bajo keltirish;

Undan qolgan pul va mollarni vorislarga taqsimlab berish .

Demak, tiriklar marhum oldida uni poklab yuvib, keyin dafn qilish uchun mas'uldirlar. Ana shu mas'uliyat sabab murdani diqqat bilan, barcha a'zolarini ma'lum tartib asosida yuvish rasm-rusmlari paydo bo'lgan tabiiy holdir. Qanday kelib chiqqan bo'lmasin, marhumni yuvish odatlari xalqimizning an'anaviy dafn marosimlaridek qadriyatlarning muhim tarkibiy qismidir. Shunday ekan marhumni yuvish udumi islom dini va shariat ko'rsatmalariga asoslansada, undagi udumlarda zardo'shtiylikning qoldiqlari ham saqlangan va bu murdani an'anaviy makruh, deb hisoblash, undan qo'rqish, cho'chish, ba'zi ehtiyot choralari sifatida bajariladigan odatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.[4]

Marhumni yuvish qoidalari qo'yidagicha: g'assol yoki qarindosh yuvuvchi tahorat qilib, yuvishni boshlaydi. Avval murdaning kiyimlari yechib olinadi, avrati ko'rinmasligi uchun bir parcha oq mato (kafanlik)dan qilingan lungi bilan yopiladi. Qoida bo'yicha marhumning kindigidan tizzasigacha (avrati) berk bo'lishi zarur.[5]

Murdashov (g'assol) yoki marhumning vasiyatiga ko'ra uni yuvadigan kishi va ularga yordam beruvchilar qat'iy ravishda marhumning avratiga qaramaslikka, ko'zlari tushmasligiga harakat qilganlar, chunki bu ulkan gunoh hisoblanadi. Buning sababi, axborotchilarning tushuntirishicha, murda (uning ruhi) uyalar emish. So'ngra murda ustiga yopilgan lungisi bilan birga taxta ustiga yuzi osmonga qaratib yotqiziladi. Murdaning oyog'i qibla tomonda bo'lib, taxtaning shu tomoni suv oqishi uchun pastroq bo'ladi(bu taxta yuziga olish deyiladi). Bir kishi lungini sal ko'tarib turadi, g'assol qo'lqop, xalta kiygan qo'lini lungini ostita tikib, murdaning avratlarini yuvadi[6].

Yana bir kishi mato ustidan iliq suv qo'yib turadi. Yuvishda iliq suv, paxta, obdasta, zarur bo'lsa sovun va atir ishlatiladi. Atirni ayrim paytda murdaga sepish mumkin, hozirda uni g'assol ishlatadi (o'likni yuvgach, dezinfeksiya maqsadida ko'lini artadi). Shunday qilib, yuvishda dastlab avrati yuviladi, bunda murda orqasi bilan yotqiziladi. So'ng toza latta olinib murda tahorat qildiriladi, og'zi-burni chaykaladi. Yuzi, so'ngra qo'li tirsagigacha yuvilib, boshiga masx tortiladi hamda avval o'ng, keyin chap oyog'ining oshig'igacha yuviladi. Keyin murda chap yoni bilan yotqizilib, o'ng taraf uch marotaba yuviladi, bunda suv taxtaga yotmog'i

Тарих ва Жамият илмий журнали

lozim. So'ngra o'ng yoni bilan yotkizilib, chap tarafi uch marotaba yuviladi, bu holda ham suv taxtaga yetishi shart.

Keyin murda taxtaga yotqizilib, boshi va ko'kraklari bir oz ko'tarilgan holda bo'ladi. Yuvadigan kishi uning qornini sekin pastga qarab silaydi, agar ichidan biror narsa (axlat) chiqsa qilingan ko'l xalta kiyib yoki latta o'rab, ba'zan paxta bilan asta-sekin shoshmasdan yuvadi. Bunda tahoratning buzilmasligini ta'minlash shart, chunki bu tahorat, axborotchilarning tushuntirshicha, murda uchun oxirgisi bo'lib, qiyomatgacha saqlanadi. Murdaning badani kir bo'lsa yoki hidi bo'lsa sovunlab yuvish mumkin, chunki marhumni yuvishdan maqsad uni tozalash, poklashdir.[7]

Xalqimizning an'anaviy dafn marosimlaridagi motam udumlari-yig'i, sadr, marhumni dafnga tayyorlash (yuvish, kafanlash, tobutga olish, janoza, qabristonga eltish va qabrga ko'yish); dafn marosimining xizmatkorlari: oqsoqol, mulla, arbob, xodim (bixalfa), g'assol, go'rkov va ularning yordamchilari to'g'risidagi fikrlar, ularning har biriga taalluqli vazifalar aniq ko'rsatilgan. Bu udumlarning har biri oldindan belgilangan, rejalashtirilgan va xalqimizning anik, bekamu kust bajariladigan tavishlariga aylangan bo'lib, ularning bajarilmasligi el-yurt nazdida marosimning ko'ngilli o'tmaganligini anglatishi uqtirildi. Qabrlarning turlari ko'rsatilib, qabristonlarning ko'rinishi, ahvoli va ularni obodonlashtirish bilan bog'lik hozirgi zamondagi muammolar hamda ularning xal qilinyotganligi masalalari yoritildi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Dala tadqiqotlari. Jizzax viloyati, G'allaorol tumani. 2015 yil, mart.
2. Dala tadqiqotlari. Jizzax viloyati, Baxmal tumani. 2015 yil, fevral.
3. Zardushtiylarning kundalik ibodatlari to'g'risida qarang: Vouse M. Zoroastrians. Their Religious Beliefs and Practices. – London, 1979. – P. 39; O'sha muallif (Boys M.) Zoroastriysi. Verovaniya i obichai. –M.: Nauchka, 1987.
4. Avesto. Tarixiy adabiy yodgorlik. Asqar Maxkam tarjiması. - Toshkent, 2001
5. Haydarova Oyposhsha 75 yosh. G'allaorol tumani, Guliston QFY. 2015 yil.
6. Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 1-5 jild.-Toshkent, 1991, 340-bet.
7. Haydarova Oyposhsha 75 yosh. G'allaorol tumani, Guliston QFY. 2015 yil.